

O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi
Hukumati o'rtasida intellektual mulk huquqini muhofaza etish
sohasida hamkorlik qilish to'g'risida

B I T I M

O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Xitoy Xalq, Respublikasi Hukumati. bundan keyin Tomonlar deb ataluvchilar,
intellektual mulk huquqini muhofaza qilish ikki mamlakatning iqtisodiyot, savdo, fan va texnika hamda madaniyat sohaslarida o'zaro manfaatli hamkorligini rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega ekanligini qayd etib,
buning uchun qulay sharoit barpo etish istagida,
tenglik va o'zaro foyda prinsipi asosida intellektual mulk huquqini muxofaza etish sohasida hamkorlikni rivojlantirish zaruratini tan olib,
quyidagilar to'g'risida ahdlashib oldilar:

1-modda

Ushbu Bitimda:

«intellektual mulk» tushunchasi Butunjahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etish to'g'risida 1967 yil 14 iyulda Stokgolmda qabul qilingan Konvensiyaning 2-moddasida belgilangan ma'noda qo'llanadi;

«sanoat mulki» tushunchasi Sanoat mulkini muhofaza etish to'g'risida 1967 yil 14 iyulda Stokgolmda qayta ko'rib chiqilgan Parij konvensiyasining 1-moddasida belgilangan ma'noda qo'llanadi.

2-modda

I. Tomonlar o'z milliy qonunlari hamda o'zlari ishtirok etgan xalqaro shartnomalariga muvofiq ravishda ikkinchi Tomonning jismoniy va yuridik shaxslariga, shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan tashkilotlariga tegishli bo'lgan intellektual mulk huquqini o'zaro samarali muhofaza etadilar 16:47 20.04.2007.

II. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi qatnashgan xalqaro shartnomalar orqali tartibga solinmagan intellektual mulk huquqini muhofaza etish masalalariga kelganda, ushbu Bitim kuchga kirgan kundan boshlab bir mamlakatning jismoniy va yuridik shaxslari shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan tashkilotlari boshka mamlakat hududida shu mamlakat qonunlariga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga shuningdek yuridik shaxs bo'lmagan tashkilotlarga beriladigan huquqlardan bir xil darajada foydalanadilar.

3-modda.

Tomonlar o'rtasida intellektual mulk sohasidagi hamkorlikka quyidagilar kiradi:

1) intellektual mulk huquqini muhofaza etishga taalluqli masalalarni muvofiqlashtirish, ikki mamlakatning tegishli idora va tashkilotlari o'rtasida mualliflik huquqi hamda unga yondosh huquqlar, sanoat mulki huquqini muhofaza etish kabi sohalarda intellektual mulk huquqini muhofaza etish yuzasidan hamkorlik qilish to'g'risida konkret bitimlar tuzilishiga ko'maklashish;

2) intellektual mulk huquqini muhofaza etish sohasida huquqiy axborotni almashish;

3) intellektual mulk huquqini muhofaza etish sohasida choralar qo'llash tajribasini almashish;

4) intellektual mulk huquqini muhofaza, etish sohasida ishlovchi xodimlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanmalar, metodlar va tegishli materiallarni almashish, shuningdek bu sohada tajriba almashish;

5) Tomonlardan har birining intellektual mulk huquqini muhofaza etish bo'yicha

qatnashgan xalqaro va ko'p tomonlama shartnomalardagi hamkorligi hamda uni bajarish yuzasidan tajriba almashish;

6) intellektual mulk huquqini muhofaza etish masalalari yuzasidan ko'rgazmalar, seminarlar va boshqa kengashlar tashkil etish;

7) hamkorlikning o'zaro kelishilgan boshqa shakllari. Tomonlarning vakolatli organlari tarafidan iqtisodiyot, savdo, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda hamkorlik to'g'risida tuziladigan bitimlarning intellektual mulk huquqini muhofaza etishga oid qoidalari ushbu Bitimga zid kelmasligi lozim.

4-modda.

Tomonlarning vakolatli organlari o'rtasida tuziladigan iqtisod, savdo, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarda hamkorlik to'g'risidagi bitimlarda intellektual mulk huquqlarining muhofazasi bilan bog'liq qoidalar ushbu Bitimga zid bo'lmasligi kerak.

5-modda.

Tomonlar milliy qonunlari hamda o'zlari ishtirok etgan xalqaro shartnomalarga muvofiq intellektual mulk huquqini muhofaza etish sohasida huquqbuzarliklarni yo'qotish uchun har qanday choralarni quradilar, bunga jinoiy, fuqarolik va ma'muriy choralar ham kiradi.

6-modda.

Ikki tomonlama hamkorlikni amalga oshirishda mahfiy saqlanishi lozim bo'lgan intellektual mulk, obyektlarini barpo etish yoki ulardan foydalanish mo'ljallansa, tuziladigan kontraktlar yoki bitimlarga mahfiylikka rioya qilish to'g'risida qoidalar kiritiladi, Tomonlarning tegishli tashkilotlari o'z davlatlari qonunlarining qoidalariga, shuningdek kontraktlar va bitimlar tarzidagi ahdlashuvlarga asoslanib, mahfiylikka rioya qilish yuzasidan o'z zimmlariga olgan majburiyatlarini bajaradilar.

7-modda.

I. Ushbu Bitimni amalga oshirishga quyidagi vakolatli organlar mas'ul etib tayinlangan:

O'zbekiston Respublikasidan - O'zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo'mitasining Davlat patent mahkamasi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish davlat vakilligi;

Xitoy Xalq Respublikasidan - XXR Davlat intellektual mulk mahkamasi, XXR Davlat savdo sanoat ma'muriy boshqarmasi qoshidagi Tovar belgilari buyicha boshqarma, XXR Davlat mualliflik huquqi buyicha boshqarmasi.

II. O'zbekiston Respublikasi fan va texnika davlat qo'mitasining Davlat patent mahkamasi bilan XXR Davlat intellektual mulk mahkamasi Tomonlarning tegishli organlari o'rtasida ushbu Bitimni amalga oshirish davomida yuzaga chiqadigan masalalar bo'yicha muvofiqlashtirish va maslahatlashuvni amalga oshirishga mas'uldirlar. Tomonlar vakolatli organlari hamkorligining tartibi va shartlari ular o'rtasidagi alohida bitimlarda belgilanadi.

8-modda.

Ushbu Bitimni amalga oshirish davomida Tomonlar bahamjihat ravishda hujjatlarning davlat tilidagi hamda rus tiliga tarjima qilinib tasdiqlangan nusxasini bir-birlariga taqdim etadilar.

9-modda

Tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan ushbu Bitimga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. O'zgartish va qo'shimchalar alohida bayonnoma tarzida rasmiylashtiriladi va ushbu Bitimning tarkibiy qismi hisoblanadi.

10-modda

Ushbu Bitimni amalga oshirish davomida yuzaga chiqadigan kelishmovchiliklarni Tomonlar maslahatlashuv va muzokaralar orqali hal etadilar.

11-modda.

I. Ushbu Bitim Tomonlar uni kuchga kiritish uchun zarur davlat ichki protseduralarini bajarib bo'lganliklari to'g'risida bergan oxirgi yozma xabarnomalari sanasidan 30 kun o'tgach kuchga kiradi.

II. Ushbu Bitimning amal qilish muddati cheklanmagan. Tomonlardan har biri diplomatik kanallar orqali boshqa Tomonni ushbu Bitim faoliyatini to'xtatish to'g'risidagi niyatidan yozma ravishda xabardor qilishi mumkin. Ushbu Bitim boshqa Tomon ana shunday xabarnomani olganidan olti oy o'tgach.-kuchdan qoladi

III Ushbu Bitim faoliyatining to'xtatilishi, agar Tomonlar boshqa xususida kelishib olmasalar, uning doirasida amalga oshirilayotgan va oxiriga yetmagan hamkorlik mavzularga dahl qilmaydi.

Pekin shahrida, 1999 yil «8» noyabrda, ikki nusxada, har biri o'zbek, xitoy va rus tillarida tuzildi, bunda barcha matnlar bir xil kuchga ega.

Ushbu Bitim qoidalarini talqin qilishda har xilliklar yuzaga chiqsa, rus tilidagi matndan foydalaniladi.

**O'zbekiston Respublikasi
Hukumati tomonidan**

**Xitoy Xalq Respublikasi
Hukumati tomonidan**